

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

2010
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

1955
TAKTU
TOSHKENT DAVLAT VOKZALI ACADEMICHESKIY UNIVERSITETI

1955
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakarlarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсупов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtaсидagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Mudofaa ehtiyojlari uchun harbiy ta'minot tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatchiligining tarixiy xazina amaliyotlaridan foydalanish	115
Seitlepesov Azamat Orazbayevich	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoilov I.B., Qayumov J.A., Ismoilov F.B., Qo'idoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otobek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lif muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSİYALARNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSİYATLARI

Yuldasheva Kamola Miraliyevna

ISFT instituti katta o'qituvchisi, PhD

feruzayuldasheva689@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari belgilab olindi. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish uchun bir qator rag'battantiruvchi tarkibiy qismlarga alohida e'tibor qaratish kerakligi tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion jarayon, boshqaruvi, qurilish materiallari ishlab chiqarish, innovatsion rivojlantirish tamoyillari, innovatsion mahsulotlar.

Abstract: This article identifies the specific features of innovative processes at construction materials production enterprises. The need to pay special attention to a number of stimulating components for managing innovative processes at enterprises of the building materials industry was investigated.

Keywords: innovation, innovative process, management, production of building materials, principles of innovative development, innovative products.

Аннотация: В данной статье определены особенности инновационных процессов на предприятиях по производству строительных материалов. Исследовано, что для управления инновационными процессами на предприятиях промышленности строительных материалов необходимо уделять особое внимание ряду стимулирующих компонентов.

Ключевые слова: инновация, инновационный процесс, управление, производство строительных материалов, принципы инновационного развития, инновационные продукты.

KIRISH

Bugungi kunda dunyodagi eng muhim ijtimoiy masalalar qatorida aholini uy-joy bilan ta'minlash muammosi muhim o'rinni egallaydi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra "aholining har bir nafar kishi hisobiga uy-joy bilan ta'minlanish ko'satkichi AQSHda – 70 kv.m, Germaniyada – 39 kv.m, Rossiyada – 25 kv.m, Turkiyada esa – 17 kv.m ni tashkil etmoqda"¹. Binobarin, qurilish sohasining barqaror taraqqiy etishi, aholini sifatli turar joy bilan ta'minlanishi ushbu tarmoq rivojiga bevosita bog'liq bo'lgan yana bir sanoat tarmog'i – qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini barqaror shartlar asosida rivojlantirish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Statistik ma'lumotlarga asoslangan holda shuni ta'kidlash kerakki, qurilish materiallari sanoati innovatsiyalarni joriy etishda ilg'or tarmoq hisoblanmaydi. Bu butun dunyoda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham xos xususiyatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydag'i PQ-4335 sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida: "zamonaviy innovatsion ishlanmalarni hisobga olgan holda qurilish me'yordi va qoidalarni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish, yangi turdag'i energiya tejamkor va ekologik jihatdan xavfsiz qurilish materiallaringng tezkorlik bilan amaliyotga joriy etilishi va qo'llanishini ta'minlash"² vazifasi qo'yilgan. Chunki XXI asr innovatsiyalarni barcha sohalarga keng joriy etish, shu bilan birga kam resurs sarflab, yuqori foydaga erishishni, ekologiya va atrof-muhitga kam zarar keltiruvchi, energiya samarador mahalliy xomashyodan tayyorlangan qurilish materiallariga ehtiyojni orttirib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoati har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, jahon iqtisodiyotiga katta hissa qo'shadi va barqaror rivojlanishda muhim ahamiyatga ega.

1 <https://gidnenuzen.ru>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydag'i "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4335 sonli qarori.



O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630 sonli Qonunida innovatsiyaga quyidagi ta'rif beriladi: "Innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalilanildigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlurma"³. Ko'rinish turibdiki, mamlakatimizda qonunchilik doirasida innovatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini (natijasi) muhim ahamiyat kasb etadi.

L.Szarnecki va D.Van Gemertning ta'kidlashicha, "Innovatsiyalarga nisbatan qurilish sanoatining munosabati nisbatan konservativdir va u sanoat o'zgarishlariga tezda javob bera olmaydi"⁴.

D.Ashokkumar fikricha "Qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblanib, uning mahsulotlari qurilish ishlarning tezligi va sifatini belgilashini ta'kidlaydi"⁵.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda mahalliy iqtisodchilardan Sh.Kurbaniyazov fikriga ko'ra "Qurilish materiallari sanoatini davlat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan soha"⁶ ekanligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish materiallari sanoatida innovatsion jarayonlarning ahamiyatini ochib berish uchun maqolada iqtisodchi oimlarning ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarga qaraganda bugungi kunda mamlakatimizda sanoat korxonalarining uchdan bir qismigina innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadi. Korxonalarda innovatsiyalarni boshqarish quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- korxonalarning katta qismida innovatsiyalarga ajartiladigan xarajatlarning minimal darajada ekanligi;
- ilm-fan taraqqiyotining jahon darajasiga moslashuvchanlikning yo'qligi;
- ilmiy-tadqiqot markazlari, yetakchi ilmiy tashkilotlarning tanqisligi;
- yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligi;
- mavjud moddiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy tuzilmalar ishida integratsiya va moslashuvchanlikning past darajasi;
- innovatsion jarayonlarning ko'p vaqt va xarajat talab etishi;
- innovatsiyalarning cheklangan tarqalishi (diffuziyasi);
- innovatsion faollikning qo'llab-quvvatlanmasligi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasidagi innovatsion boshqaruvning mavjud xususiyatlari yangi mahsulotni yaratish va muvaffaqiyatli tijoratlashtirish o'rtaSIDAGI vaqt oralig'ini qisqartirish maqsadida munosib shart-sharoitlarni yaratish uchun qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi. Qurilish materiallari sanoatida innovatsion faoliyatning yuqori ahamiyati qurilish narxini pasaytirish uchun unga xos bo'lgan potensial bilan izohlanadi: qurilish materiallarining xarajatlari tayyor binolar va inshootlar narxining 60-70 foizini tashkil qiladi. Umuman olganda, qurilish materiallari ishlab chiqarish yuqori material zichligi bilan ajralib turadi.

Ilmiy va soha adabiyotlarini o'rganish, shuningdek, amaliy tajribani umumlashtirish asosida qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Innovatsion faoliyatning yuqori ijtimoiy mas'uliysi. Qurilish materiallari sanoatidagi innovatsiyalarning eng muhim xususiyati shundaki, bu innovatsiyalar inshootlarning turlicha tabiiy va texnogen sabablar bilan vayron bo'lishi shaklidagi halokatli oqibatlarga olib keladigan nuqsonlarning oldini olishga xizmat qilishi kerak. Qurilish sohasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning strategik maqsadlariga, balki demografik to'qinlarning bosimiga ham bog'liq. Aholi dinamikasi innovatsiyalarni miqdor va qulaylik o'rtaSIDAGI ma'lum bir muvozanatga yo'naltiradi.

2. Innovatsiyalarga bo'lgan ko'p darajali talab, bu mahsulotlarning iste'mol xususiyatlaridagi farqlarni keltirib chiqaradi va innovatsiyalarni differensial boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tarmoqda innovatsiyalar asosan yakuniy va oraliq iste'molchilar talabi bilan rag'batlantiriladi. Yakuniy iste'molchi nuqtayi nazaridan qurilish materiallarining raqobatbardoshligi ularning ishonchliligi, chidamliligi, funksionalligi, xavfsizligi, uyg'unligi va estetikasi bilan belgilanadi. Qurilish kompaniyalari nuqtayi nazaridan, innovatsion qurilish materiallarining maqbulligi ularning tannarxini pasaytirish (masalan, mehnatni tejash), sifatini yaxshilash, mexanik xususiyatlar,

3 O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyuldag "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi O'RQ-630-son Qonuni.

4 Czarnecki L., Van Gemert D.A. Innovation in construction materials engineering versus sustainable development // Bulletin of the Polish Academy of Sciences. Technical Sciences. – 2017. – № 6. – p. 765–771.

5 Ashokkumar D. Study of quality management in construction industry // International Journal of Innovative Research in Science Engineering and Technology. – 2014. – № 1. – p. 36–43.

6 Курбаниязоз Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. // Biznes-ekspert, 2017, №11(119).



fizik xususiyatlar, xizmat ko'rsatish sharoitlariga moslashuvchanlik, yig'ish va foydalanish qulayligi, ekologik tozaligi bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtida jahon bozorida qurilish materiallariga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagi chizmada berilgan. (1-rasm)



1-rasm. Zamonaviy qurilish materiallariga qo'yiladigan talablar⁷

3. Qurilish texnologiyalari va qurilish materiallarining parallel innovatsion transformatsiyasi. Masalan, innovatsion qurilish materialari qatoriga 3D bosilgan qumtosh (aslida bu jarayon innovatsion texnologiya), ko'pkli plastmassa va bambukdan yasalgan temir-beton va boshqalar kiradi.

4. Konvergensiya va texnologiya transferi. Beton ishlab chiqarishda zamonaviy biotexnologiyalardan foydalanish, bakteriyalarning mikroyoriqlarni "davolash" xususiyati an'anaviy turlarga qaraganda namlik darajasiga chidamli biobetonning paydo bo'lishiga olib kelishini misol tariqasida keltirish mumkin. Nanotexnologiyadan foydalanish tufayli yog'och shaffofligiga erishiladi, bu esa uni quyosh panellari va derazalar uchun ishlatalish imkonini beradi.

5. Qurilish materiallari sanoati o'zining moddiy material iste'moli bilan ajralib turadi. "Birgina jahon beton sanoati yiliga 20 milliard tonna agregat, 4 milliard tonna sement va 800 million tonna suv ishlataladi"⁸. Bunday katta hajmdagi materiallar iste'moli qurilishda barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish zarurligini belgilaydi

Qurilish materiallari sanoatida barqaror innovatsiyalarni yaratish uchun yuqori salohiyat, boshqa xomashyolar qatori, sanoat chiqindilaridan (kul, maydalangan donador shlaklari va boshqalar) foydalanish orqali namoyon bo'ladi.

6. Innovatsiyalarni yaratishda modifikatsiyalash yondashuvining yuqori samaradorligi va inqilobiy o'zgarishlarning past ehtimoli. Qurilish materiallarining yangi xususiyatlarini mineral qo'shimchalarni qo'shish orqali olish mumkin, ular, masalan, mikroyoriqlarni minimallashtirish, kuchni oshirish, natijada xizmat muddatini oshiradi va foydalanilayotgan binolarni iste'mol qilish xarajatlarini kamaytiradi. Bundan tashqari, innovatsiyalar yangi mahsulot toifalarini shakllantirish orqali yaratiladi.

7. Qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirishda taklif omilining kuchli ta'siri. Qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalarini yaratish uchun yangi takomillashgan mahsulotlarni ishlab chiqarishda xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar bilan ta'minlaydigan tarmoqlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish asos sifatida xizmat qiladi.

8. Atrof-muhit omillarining qurilish materiallarining xususiyatlariga kuchli ta'siri. Bu borada atrof-muhit sharoitlarining o'zgarish tezligi qurilish materiallari sanoatidagi innovatsion jarayonlarga bosim o'tkazishi, ularning tezligiga qo'shimcha talablar qo'yishiga e'tibor qaratish lozim. Chunki innovatsion jarayonlar siklining

⁷ Mualif ishlamanasi

⁸ Czarnecki L., Van Gemert D.A. Innovation in construction materials engineering versus sustainable development // Bulletin of the Polish Academy of Sciences. Technical Sciences. – 2017. – № 6. – p. 765-771.



ITTKI va ishlab chiqarish bilan bog'liq qismini qisqartirishga erishgan korxonalar bozorda muvaffaqiyatga erishadilar, bu esa ular uchun innovatsiyalarning bozor siklini yoki ularni patentlash siklini uzaytirishga imkon beradi.

Korxonaning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi innovatsion jarayonlarni boshqarish tamoyillari, usullari va vositalari majmuini ifodalovchi innovatsion boshqaruv imkoniyatlarini yaratish va faol qo'llashni nazarda tutadi. Innovatsiyalarni boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- innovatsion rivojlanish maqsadlarini belgiilash;
- innovatsion siyosatini shakllantirish va innovatsion strategiyalarni tanlash;
- innovatsion strategiyani shakllantirish va amalga oshirish;
- korxona faoliyatini innovatsion asosda o'zgartirish;
- xodimlarning malakasi, innovatsion faolligini rivojlantirish;
- innovatsiyalardan foydalanish, ulardan mahsulot olish; iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar.

Boshqaruv innovatsiyalari ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lмаган, lekin boshqaruv funksiyalarining intensivligini oshirish orqali unga ta'sir ko'rsatadigan bosqichlarni o'z ichiga oladi: rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, nazorat va buxgalteriya hisobi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va hokazo. Bunday innovatsiyalar ko'p investitsiyani talab qilmaydi. Lekin beqaror vaziyat va inqiroz sharoitida aynan shunday innovatsiyalar birinchi o'ringa chiqadi, chunki ular nisbatan kichik investitsiyalar bilan korxona samaradorligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga va raqobatbardoshlikni rivojlantirishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlarimiz natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish uchun quyidagi rag'batlantiruvchi tarkibiy qismlarga alohida e'tibor qaratish kerak degan xulosaga keldik:

1. Raqobatbardoshlikni oshirish:
 - ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish;
 - yangi savdo bozorlarini rivojlantirish;
 - rivojlangan bozorda korxona mavqeyini mustahkamlash va kengaytirish.
2. Mehnat unumdorligini yuqori darajada oshirish:
 - ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish;
 - ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning diversifikatsiyasini kengaytirish;
 - ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
 - mehnat sharoitlarini yaxshilash.
3. Resurslardan oqilona foydalanish:
 - standartlarga muvofiqligini nazorat qilish;
 - material sarfini kamaytirish;
 - energiya sarfini kamaytirish.

Demak, innovatsion jarayonlarni boshqarishning pirovard maqsadi innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va mahsulotlarning yuqori raqobatbardoshligi asosida korxonaning uzoq muddatli faoliyatini ta'minlashdan iborat.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydag'i "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4335 sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldag'i "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi O'RQ-630-son Qonuni.
3. Czarnecki L., Van Gemert D.A. Innovation in construction materials engineering versus sustainable development // Bulletin of the Polish Academy of Sciences. Technical Sciences. – 2017. – № 6. – p. 765–771.
4. Ashokkumar D. Study of quality management in construction industry // International Journal of Innovative Research in Science Engineering and Technology. – 2014. – № 1. – p. 36–43.
5. Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. //Biznes-ekspert, 2017, №11(119).
6. Барютин Л. С. [и др.] Основы инновационного менеджмента. Теория и практика: учебник /; под ред. А. К. Казанцева, Л. Э. Миндели. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Экономика, 2004. – 518 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100